



Andijon viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar-avgust


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida o'zgarishi
- III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-avgust oylarining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **32 322,8** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,4** % ga, uning hajmi esa **6 778,8** mlrd so'mga o'sishi kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar hajmi **25 544,1** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **113,8** % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (yanvar-avgust, mlrd so'mda)



II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida o'zgarishi

2025- yilning yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **25,6** %, ya'ni **8 261,6** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan ushbu hududning o'sish sur'ati **120,1** % ga yetgan. Shu bilan birga, eng yuqori ulush Asaka (**4,5** %), Andijon (**4,0** %) va Shahrixon (**3,6** %) tumanlarida kuzatilmoqda. Ulug'nor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **320,3** mlrd so'mni yoki jami xizmatlar hajmining **1,0** % ini tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining hududlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-avgust

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	32 322,8	100,0	115,4
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	8 261,6	25,6	120,1
Xonobod sh.	504,3	1,6	119,0
Oltinko'l	937,4	2,9	117,7
Andijon	1 282,9	4,0	118,0
Baliqchi	1 105,9	3,4	115,5
Bo'ston	356,8	1,1	118,2
Buloqboshi	674,1	2,1	116,9
Jalaquduq	964,6	3,0	119,8
Izboskan	1 023,0	3,2	119,1
Ulug'nor	320,3	1,0	117,2
Qo'rg'ontepa	1 027,3	3,2	117,9
Asaka	1 455,8	4,5	117,1
Marhamat	935,3	2,9	116,8
Shahrixon	1 164,4	3,6	118,1
Paxtaobod	834,8	2,6	117,5
Xo'jaobod	1 019,9	3,2	117,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi

2025- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Andijon shahrini hisobga olmaganda, (yoki viloyatimiz hududlaridan), Jalaquduq (**119,8 %**), Izboskan (**119,1 %**), Xonobod shahar (**119,0 %**), Shahrixon (**118,1 %**), Andijon (**118,0 %**), Qo'rg'ontepa (**117,9 %**) va Oltinko'l(**117,7 %**) tumanlarida kuzatildi.

2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori bo'lmagan o'sishi Baliqchi tumanida qayd etildi – **15,5 %**.

2025- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 303,1** ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davri (**7 492,2** ming so'm)ga nisbatan **1 810,9** ming so'mga yoki **13,3 %** ga o'sishi qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahriga to'g'ri kelib, **16 690,1** ming so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,4 %** ga yoki **3 581,7** ming so'mga o'sishi kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shahrixon tumanida (**3 501,8** ming so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar-avgust)

	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	9 303,1	113,3
shahar va tumanlar:		
Andijon sh.	16 690,1	117,4
Xonobod sh.	10 798,8	117,2
Oltinko'l	4 812,2	116,3
Andijon	4 362,2	115,4
Baliqchi	5 004,2	113,3
Bo'ston	4 459,6	115,5
Buloqboshi	4 307,3	114,8
Jalaquduq	4 756,3	117,9
Izboskan	3 916,5	116,9
Ulug'nor	4 973,5	116,3
Qo'rg'ontepa	4 367,7	115,9
Asaka	4 006,1	114,9
Marhamat	4 906,9	114,7
Shahrixon	3 501,8	115,7
Paxtaobod	3 912,0	115,4
Xo'jaobod	8 305,2	115,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **23 169,3** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **71,7 %** ini tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan **11,1 %** ga o'sish kuzatildi.

Hududlar bo'yicha Andijon shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **808,2** mlrd so'mga yoki **10,7 %** ga oshib, **4 847,2** mlrd so'mga yetdi. Bu hududda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **20,9 %** ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, Asaka (**848,8** mlrd so'm), Baliqchi (**847,2** mlrd so'm) va Andijon (**815,0** mlrd so'm) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Shahrixon tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **725,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, Ulug'nor (**195,1** mlrd so'm) va Bo'ston (**212,8** mlrd so'm) tumanlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi nisbatan past bo'lgan.



Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-avgust

	Hajmi, mlrd. so'm	Jami hajmdagi Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami	23 169,3	71,7	111,1
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	4 847,2	58,7	110,7
Xonobod sh.	303,6	60,2	114,8
Oltinko'l	598,0	63,8	112,8
Andijon	815,0	63,5	113,3
Baliqchi	847,2	76,6	111,3
Bo'ston	212,8	59,6	112,1
Buloqboshi	402,4	59,7	111,8
Jalaquduq	667,8	69,2	118,6
Izboskan	678,9	66,4	118,3
Ulug'nor	195,1	60,9	111,9
Qo'rg'ontepa	643,5	62,6	112,1
Asaka	848,8	58,3	111,0
Marhamat	677,8	72,5	112,4
Shahrixon	725,7	62,3	112,7
Paxtaobod	537,8	64,4	111,9
Xo'jaobod	625,3	61,3	113,1

III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27 fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"

PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning **47,5 %** ga (jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining mutlaq o'sishiga ta'siri **7,6** foiz bandni tashkil etdi), transport xizmatlarining **12,2 %** ga (o'sishiga ta'siri **1,8** foiz bandni), savdo xizmatlarining **9,1 %** ga (o'sishiga ta'siri **1,6** foiz bandni), yashash va ovqatlanish xizmatlarining **7,6 %** ga (o'sishiga ta'siri **1,9** foiz bandni), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **16,5 %** ga (o'sishiga ta'siri **0,6** foiz bandni), boshqa xizmatlarning **18,2 %** ga (o'sishiga ta'siri **0,5** foiz bandni) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning **7,4 %** ga (o'sishiga ta'siri **0,1** foiz bandni) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. O'z navbatida, ijara xizmatlarining **22,0 %** ga, hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning **18,8 %** ga o'sishi jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,6** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-avgust)

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	25 544,1	32 322,8	115,4
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	903,3	1 161,7	116,5
moliyaviy xizmatlar	3687,4	5 546,9	147,5
transport xizmatlari	4122,4	5 254,9	112,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	3891,9	4 942,1	111,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6997,5	8 483,7	107,6
savdo xizmatlari	5284,7	6 107,5	109,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	450,3	586,8	107,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	893,0	1 097,8	103,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	455,4	577,5	118,8
ijara xizmatlari	369,6	491,2	122,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	530,9	643,8	112,3
shaxsiy xizmatlar	924,3	1 171,5	110,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	156,2	167,7	98,6
boshqa xizmatlar	769,1	1 031,9	118,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi

2025- yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **26,2 %**, transport xizmatlari **16,3 %**, moliyaviy xizmatlar **17,2 %**, savdo xizmatlari **18,9 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,6 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,4 %** ulushni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **27,4 %**, transport xizmatlari **16,1 %**, moliyaviy xizmatlar **14,4 %**, savdo xizmatlari **20,7 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,5 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,5 %** ulushni tashkil etgan.


2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **1 486,2** mlrd so'mga oshib, **8 483,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, ushbu xizmatlarning ulushi **99,0 %** darajasida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi **5 254,9** mlrd so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 2024- yilning mos davriga nisbatan **112,2 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmidagi ulushi **16,3 %** darajasida qayd etildi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **94,0 %**. Transport xizmatlarining umumiy hajmida Yordamchi transport faoliyati **5,5 %** darajasida qayd


etildi. O'z navbatida, pochta va kuryerlik xizmatlarida ko'rsatilgan xizmatlarning jami transport xizmatlari hajmidagi ulushi **0,5 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi



2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan ushbu tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **822,8** mlrd so'mga oshib, **6 107,5** mlrd so'mni tashkil etdi.


Savdo xizmatlari hajmining tarkibi



Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **72,6 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **14,0 %** ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **13,4 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1 161,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Telekommunikatsiya xizmatlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida eng katta qismni egallab, **78,7 %** ni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **111,8 %** ni tashkil etgan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi, mlrd so'mda



2025- yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 097,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **59,4** % ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**586,8** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **99,7** % darajasida qayd etildi.

2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **577,5** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan uning o'sish sur'ati **118,8** % ni tashkil etgan.

Ijara xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulushni yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlari (**79,5** %) egallaydi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlari (ro'yxat) bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik



va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiquvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursini qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi

Manzil: 170100, Andijon sh.,
Milliy tiklanish ko'chasi, 36- "A"
uy,

Pochta: info@andstat.uz
Tel.: 74-224-80-00

